

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH BARQAROR IQTISODIY O‘SISH GAROVI

Shirinoza Shahnoza Abdunabiyevna

Buxoro innovatsiyalar universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi

yo‘nalishi 2 - kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mamalakatning iqtisodiy rivojlanishi va bandlikni qisqartirishning asosiy vositasi ekanligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: biznes, tadbirkorlik subyektlari, real daromad, aholi bandligi, YaIM, qishloq xo‘jalik aloqalari, bozor iqtisodiyoti.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о малом бизнесе и частном предпринимательстве в Республике Узбекистан как основном средстве экономического развития страны и сокращения бедности.

Ключевые слова: бизнес, субъекты хозяйствования, реальные доходы, занятость населения, ВВП, сельскохозяйственные отношения, рыночная экономика.

ABSTRACT

This article talks about small business and private entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan as the main means of economic development of the country and reduction of poverty.

Keywords: business, business entities, real income, population employment, GDP, agricultural relations, market economy.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirib borish, iqtisodiyotni xususan bozor munosabatiga o‘tishni tezlashtiruvchi eng asosiy yo‘llardan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizga investisiyalarni jalb qilish, xususan, kichik biznes sohasida faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlarni zamonaviy texnika hamda jihozlar bilan ta‘minlash, bozor talabiga javob beradigan raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish bugungi kunning

asosiy talabidir. Bu borada investisiyalarning o'zni beqiyosdir, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanayotganligi, barqaror iqtisodiy o'sish va mahalliy hamda xorijiy investisiyalar hajmi yildan-yilga oshib borishi real sektordagi investision jarayonlarni faollashtiradi. Investision jozibadorlikni oshirish yo'li orqali iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin.

Bugungi kunda mamalakatlar iqtisodiyoti taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida kichik biznesni rivojlantirish masalalari e'tirof etilmoqda. Kichik biznesni jahon andozalariga mos ravishda tashkil etish va rivojlantirish bevosita investision omillar bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Shu ma'noda kichik biznesni samarali investisiyalash O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini belgilab beruvchi muhim kuchga aylanadi.

Kichik biznes davlatning bozor va xo'jalik yurituvchi tizimlarining hayotiy asosi bo'lib xizmat qilib, bozor munosabatlarining asosiy shartlaridan biri bo'lgan, talab va taklifdagi manfaatlar muvozanatini inobatga oladigan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kabi birlamchi ijtimoiy-iqtisodiy funksiyani o'z ichiga oladi. Davlat tomonidan kichik biznes korxonalarining investision jozibadorligini oshirish uchun kerakli choralarning ko'rilishi, kichik biznesga kredit ajratishni oshirishga va kichik biznes korxonalarining kreditlardan to'la foydalana olishiga yo'l ochib beradi. Kichik biznesda investision jozibadorlikni oshirish borasida olimlar quyidagi fikrlarni keltirganlar. Xususan, D.A.Ednoviskiy, V.A.Babushkin, N.A.Baturinalar investision jozibadorlikni investision tavakkalchilik bilan bog'laydilar. Ular investision jozibadorlik deganda tashkilotning shunday holatini tushunadiki, bunda kapital egasida tavakkalchilikka borish, shuningdek, pul ko'rinishida va asosiy vositalar shaklidagi investisiyalar oqimini ta'minlash istagi paydo bo'ladi. Bu vaziyatda kapital ta'minlovchi va ma'lumot oluvchilarning ishonchi tashkilotning investision jozibadorlik darajasining asosiy va juda sezuvchan hosilasi hisoblanadi. I.A.Blank investision jozibadorlik – bu aniq investor nuqtai nazaridan alohida yo'nalish va ob'ektlarni investisiyalashdagi afzalliklarini va kamchiliklarini umumlashtiruvchi deb ta'rif berib, bunga ko'ra alohida ob'ektlarni investisiyalash jozibadorligini baholash ko'p omillarga bog'liq va individual xususiy xarakterga ega deb ta'kidlaydi. Kichik biznesning investision jozibadorligini oshirish, kredit va moliya institutlarini rivojlantirish, xorijiy va mahalliy investisiyalar hajmini ko'paytirish hamda davlat dasturlarini ishlab chiqqan holda kichik biznesga mablag' ajratish hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Mamlakatimizda kichik biznesga investisiyalarni keng jalb etish va ularning jozibadorligini oshirish, hamkorlikdagi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish asosida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini jahon bozorlari talabi darajasiga ko'tarishga imkoniyat yaratmoqda. Biroq mamlakatimizda investisiya faoliyatini moliyalashtirish

usullarini takomillashtirish, shu bilan bir qatorda, ularni moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish va investisiya bozori infratuzilmasini shakllantirishda hali o'z yechimini to'liq topmagan muammolar mavjud. Tadbirkorlar tomonidan taqdim etilayotgan texnik iqtisodiy asosnoma (TIA) larning yaxshi ishlanmaganligi xorijiy kredit liniyalari o'zlashtirilishining kechikishiga asosiy sabab bo'lmoqda. Aksariyat hollarda taqdim etilgan texnik iqtisodiy asosnoma (TIA) larda sotib olinadigan xom-ashyolar narhlarining kamaytirilib ko'rsatilishi sotib olinadigan texnologik uskunalarni hamda soltiladigan mahsulotlar narxlarining real narxlarga nisbatan oshirib ko'rsatilishi texnik iqtisodiy asosnoma (TIA) larning qayta tayyorlashiga va tadbirkorlikning ortiqcha vaqt sarflab ovora bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Chet el kreditlari o'z vaqtida o'zlashtirilmasligining yana bir sababi kredit berilishida asosiy shartlardan biri bo'lgan kredit ta'minotining yetishmasligidir. Investision loyihalari ma'qullagan tadbirkorlik sub'ektlarining 40-50 foizi belgilangan miqdordagi yoki likvidli ta'minot taqdim etilmaganligi sababli viloyatlarni moliyalashtirish kechikmoqda. Hozirgi kunda ushbu muammolarning yechimini topishga ayrim omillar ya'ni:

- ko'chmas mulk bozorining (ishlab chiqarish xarakteridagi) rivojlanmaganligi;
- qimmatli qog'ozlar bozorining yetarli rivojlanmaganligi;
- kafil bo'la oladigan moliyaviy barqaror korxonalarining kamligi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqorida ta'kidlangan muammolarni hal etishda quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

1. Kichik biznesning investision jozibadorligini oshirishda investisiya fondlarini rivojlantirish kerak;

2. Kichik biznesni moliyalashtirishga qaratilgan ixtisoslashgan fondlarni shakllantirish lozim;

3. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlarini boshlang'ich kapitalini shakllantirish uchun va ularning investision loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida uzoq muddatli kreditlar hajmini oshirish orqali mamlakatimizda investisiya faoliyatini moliyalashtirish muammolarini hal qilishga erishish imkoniyatiga ega bo'lishimiz mumkin. Mazkur takliflarni joriy etish orqali kichik biznes investision jozibadorligini oshirish va yetarli darajada rivojlantirish orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin: – investision jozibadorlikni oshirish va hududlarga investisiya kiritishni yaxshilash, bozor munosabatlarining mustahkamlanishiga yordam beradi; – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, birinchi navbatda, investisiya maqsadlari, boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish hajmini kengaytiradi; – raqobat muhitini yuzaga kelishi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni yaxshilash uchun kuchli vosita bo'ladi; – ijtimoiy va

iqtisodiy muammolarni ma'lum darajada hal qilinishini ta'minlash kichik biznes iqtisodiyotning strategik va mobil sektorini rivojlanishiga olib keladi.

Mamlakatimizdagi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hukumat hamda mahalliy boshqarish organlarining birgalikdagi sa'y-harakati yordamida kichik biznesni rivojlantirish sharoitini yaxshilashda sezilarli natijalarga erishish mumkin, bu esa o'z navbatida O'zbekistonda kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirish va iqtisodiyotni isloh qilishda ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Shu bilan bir qatorda mamlakatimizda ichki investisiyalardan foydalanish samaradorligini oshiradi, bu esa YaIM hajmi o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasining 2020–2022 yillarga mo'ljallangan Investisiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari <http://lex.uz/m/acts/4689640>
2. Д.А. Ендиновицкий, В.А. Бабушкин, Н.А. Батурина и др. Анализ инвестиционной привлекательности организации: научное издание/ М.:КНОРУС,2010.- 376с.
3. Бланка И.А. “Основы инвестиционного менеджмента” В 2 т. Спб; Ника – центр, 2001.